

G'arb va Sharq adabiyotida Amir Temur prototipi asosida yaratilgan asarlar tadqiqi

Zebo Yaxshiyeva¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Amir Temur siymosini prototip sifatida olgan, o'rta asrlar ingliz adabiyotida turli davrlarda yaratilgan dramatik, nazmiy va nasriy asarlar tadqiqi borasida so'z yuritildi. Har bir asar o'zbek va boshqa sharq adabiyotida mavjud badiiy ijod namunalari bilan qiyosiy o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotlarda keltirilgan nazariy fikrlarga tayangan holda, yozuvchilarning badiiy obrazlarga yuklagan orzu umidlari haqida ilmiy xulosalar berildi. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari tahlilimizning bosh obyekti sifatiga olingan bo'lib, g'arb yozuvchilari badiiy merosini tadqiq etgan dunyo ilm ahlining Temur badiiy obrazi borasidagi fikrlari yuzasidan ilmiy tahlillar olib borildi. O'zbek adabiyotshunos olimlarining bir qator tadqiqotlari va ilmiy qarashlariga suyangan tarzda Amir Temur tarixiy siymosining badiiy asarlarga ko'chgan obrazi bilan qiyosiy tadqiq etildi. Ayniqsa, ushbu maqolada qiyosiy o'rganilgan ingliz adiblari bosh qahramonida aks etgan o'sha davr ijtimoiy muhiti, oddiy xalqning orzu istaklari va hukmron qatlam va cherkov ziddiyatlari, asar to'qima obrazlariga va voqealariga ko'chgan mifologik unsurlar haqida mulohazalar berildi.

Kalit so'zlar: *interpretatsiya, ierarxiya, tetraloogiya, Nikolas Rou, Charlz Sanders, epopiya, Tamerlan, Kristafor Marlou, dramaturgiya.*

Kirish

Amir Temur yuritgan adolatli va oqilona siyosat, diniy bag'rikenglik, u tuzgan markazlashgan davlat o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy taraqqiyotida, dunyo tamaddunining yanada yuksalishida alohida ahamiyatga ega. Bu tarixiy haqiqatni tan olmasdan va e'tirof etmasdan, sohibqiron yashagan davrni, uning keyingi asrlardagi ta'sirini va umumbashariy ahamiyatini baholab bo'lmaydi. Amir Temur siymosi barcha davrlar o'zbek adabiyotida ijodkorlar uchun erk, ozodlik, adolat, kuch-qudrat, millat timsoli

¹ Yaxshiyeva Zebo Rashidovna – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

E-mail: zebona.sevinch@gmail.com.

ORCID ID: 0009-0006-0973-6147

Iqtibos uchun: Yaxshiyeva Z. 2024. "G'arb va Sharq adabiyotida Amir Temur prototipi asosida yaratilgan asarlar tadqiqi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (2): 120-137.

bo'lib kelgan. Amir Temur tarixiy shaxsining obraz sifatida realistik talqini va uni yaratishda epik an'ana va tarixiylik tamoyillariga asoslanish masalarini o'rganish bugungi kun Temurshunos olim va olimalari jiddiy tadqiq etishi zarur masalalardandir. Bu izlanishlar avvalida jahon adabiyot ilmida Amir Temur siymosini ilmiy jihatdan o'rganishga doir qator adabiyot va ilmiy risolalarni keltirish mumkin.

Asosiy qism

G'arb va Sharq adabiyotida Amir Temur shaxsi, faoliyati aks etgan asarlarni shartli ravishda uchga bo'lish mumkin:

1. Amir Temur hayot davrida uning zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlar.

2. Uning vafotidan keyin yaratilgan asarlar:

A) XIX asrgacha yaratilgan asarlar;

B) 1920-30 yillarda yaratilgan asarlar;

S) 1970 yillarda yaratilgan asarlar;

D) mustaqillikdan so'ng yaratilgan asarlar.

3. Xorijda yaratilgan asarlar.

O'zbek adabiyot olamida yozuvchi va adiblarimiz tomonidan yozilgan hamda jahonda temuriylarga oid asarlari bilan mashhur ijodkorlarning o'zbek tiliga tarjima qilingan ko'plab asarlarni uchratish mumkin: Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi va yuzga yaqin maqolalari, Nurali Qobulning "Temuriylar" epopiyasi, Lyusen Kerenning. "Amir Temur saltanati"; Brion Marselning "Menkim Sohobqiron-Jahongir Temur", A. Ibrohimov qalamiga mansub "Bizkim o'zbeklar" nomli qator adabiyot namunalarini misol keltirishimiz o'rinli.

G'arb adabiyotshunosligida Amir Temur siymosini o'z asarlarining prototipi sifatida olgan XVI asr ingliz adabiyotida Kristafor Marlouning "Buyuk Tamerlan" dramasi, XVII asr ingliz sahnalarini bezagan Charlz Sandersning "Tamerlan" sahna asari, XVIII asrda dovro'g'i doston bo'lgan Nikolas Rouning "Tamerlan" asarlarini yaratilish jarayonlariga nazar tashlasak, ifodalanyotga hodisa va qahramonlarning muallif dunyoqarashidan kelib chiqib tasvir etilishi, inson, jamiyat va borliq ijodkor badiiy tafakkuriga asosan baholanishi va mana shu asarlarga singdirilgan monologik tafakkurning birlamchi talablaridan bo'ldi. Ular mazkur adiblarga davrning keskin, og'riqli va dolzarb ijtimoiy falsafiy muammolarini ko'tarib chiqish mas'uliyatini yukladi. Chunki, ingliz adabiyotida cherkovning g'oyaviy zo'ravonligiga qarshi kurashish, qirol

va kiborlarning manmanliklari va kibrlari, ayniqsa toj-u taxt Yaratganning ilohiy ne'mati va unda oddiy insonlar daxl qilishi mumkin emas qabilidagi ishonchlari, adiblar ko'nglidagi og'riqlarni asarlarga ideal obraz Temur misolida olib chiqish ehtiyojini keltirib chiqardi. Ayniqsa, ularni badiiy talqin etishi, ularga bilvosita asarlari orqali munosabat bildirishi ya'ni jismoniy va ma'naviy komil inson ideali, real tashqi dunyo go'zalligining va inson kechinmalari murakkab dunyosining san'at tomonidan kashf etilishi, antik dunyo madaniyati turli qirralarining chuqur egallanishi masalalari tarixiy asarlarda ko'rina boshlandi.

Ingliz adabiyotiga ilk bor Amir Temur obrazini olib kirgan shaxs "University wits" (Universitet donolari) ga mansub Kristafor Marlou edi. "Tamburlaine the great" (Buyuk Temur) tragediyasi orqali u "Ingliz teatrining otasi" (father of English theatre) degan sharaflı nomga sazovor bo'lib, ingliz dramaturgiyasida dahshatli (qudratli) fojea (powerful tragedy) janriga ham asos soldi. Uning bosh qahramoni Tamburleyn inglizlarda qirollar saroyidagi yuksak lavozim egasiga nisbatan aytilgan "Chamberlain" so'zining talaffuz etilishiga qulay varianti ham bo'lishi mumkin degan qarashlar mavjud. Ushbu ikki qismdan iborat tragediyani Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" qissasi bilan qiyosiy o'rgangan adabiyotshunos Olimjon Dadaboyevning qo'yidagi qarashlari ahamiyatli: K.Marlou Amir Temurni afsonaviy qahramon tarzida tasvirlab, uni baland boyli, tik qomatli deb tasvirlaydi. yelkalari keng bo'lib, go'yo butun dunyoni ko'tarib tura oladiganday. Uning uzun qo'llari va kuchli mushaklari uning qudratidan darak berib, ko'zlari esa o'tkir va sehrli. Bularning hammasi uning qudratidan va dunyo hukmdori bo'lishidan darak beradi. Ushbu asardagi Temurning 300 kishilik askarlari bilan mingdan ortiq qo'shinga "dars" berib qo'yishi va dushmani qochishga majbur qilish epizodi Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlaridagi tarixiy qaydlar bilan mushtarak [Dadaboyev 2019, 16]. Amir Temur haqidagi lavhalar XX asrning boshlarida turkiy tilda yozilgan Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" (yoki Amir Temur ko'ragon jangnomasi) asarida xalqona afsonalarga hamohang tarzda tasvirlangan: Temur dunyoga kelgandan keyin Zanjir Sara qudug'idan qirqta qul suv tortadigan qovg'ani yolg'iz o'zi tortib odamlarga suv ulashadi. Qassobning zil zambul qanorasini bir barmogi bilan otib yuboradi. Uxlab yotganida sezgisining kuchidan kunjida kulcha bo'lib yotib olgan ilonning boshini tishlab uzib oladi. Yuk to'la aravani ko'tarib otib yuboradi. Mana shunday tasvirlardan ko'rinib turibdiki Temur ertak yoki epos qahramonalri singari, xalq orzusi-

dagi va idealidagi qahramon va hukmdor sifatida tasavvur qoldiradi. Ayniqsa uning tug'ilish sahnasining o'ziyoq ya'ni Zuhal va Mushtariy sayyoralarining yaqinlashuvi davrida tug'ilgan o'g'il Sohibqiron-uning toleyi umri oxirigacha iqboli mas'ud bo'lishi aytilgan. Chunki *"Shul soatda tangri taborok va taolo olamni yaratibdur, har farzand shul soatda tavallud topsa, oning toleyi oxir umrigacha doimo iqboli masuddi"* [Toshkandiy 1990, 351]. Asarda shuningdek, Qaysari Rum g'orining ichida Aristotelus yozib qoldirgan lavhada bu g'orda Iskandar uning tavalludidan sakkiz yuz yil o'tib, Rasuli Akram uning tug'ilishidan shuncha vaqt o'tib, Iskandari Soniy tug'ilgani bashorat qilinadi.

K.Marlou hamda S.Toshkandiy kabi ijodkorlar asarlaridagi bosh qahramon ham jangchi, sarkarda va yengilmas ilohiy shaxs. Asarlardagi obrazlarning o'xshash va farqli jihatlarni o'rganish asnosida qayd etish joizki, ushbu ikki ijodkor bosh qahramoni Temur obrazini yaratishda turli manbalarga tayangani e'tiborli. S.Toshkandiy "Temurnoma" dostonini yozishda Sharqda yaratilgan ko'plab manbalarga, qolaversa, xalq og'zaki ijod namunalariga, xalq qissalariga (Qissayi Mashrab, Ibrohim Adham, Bahovuddin Naqshband) tayanilgani sezilsa, K.Marlou haqida qator ilmiy taqiqotlar olib borgan. Parfyonev ilmiy taqiqotlarida va amerikalik yozuvchi Jastin Marotsining "Tamerlane: SWord of Islam, Conqueror of the world" asarida ma'lumot berilishicha: "K. Marlou Temur haqidagi ma'lumotlarni florensiyalik Petro Perondinning "Skiflar imperatori Buyuk Temurning hayoti" va genuyalik Baptista Fregozoneg "Unutilmas hikmatlar va ishlar" traktatlaridan" [Парфёнев 1965, 5], Jorj Uetstonning "Ingliz ko'zgusi" kitoblaridan [Мауроцци 2010, 66] foydalanganlik ehtimoli katta. K.Marlouning Yevropadagi mashhur taqiqotchisi Ellis Fermourning esa K.Marlou asosan Xalkondilos, Haytn, Fregoza, Meksia, Premadeya va Pirondinilarning ishlari [Ellis Fermor 1927, 13] ushbu tragediyani yozishda asosiy manba bo'lib xizmat qilganini ta'kidlagan.

Ingliz adabiyotida yozilgan ushbu ilk asardagi Amir Temur obrazi va voqeliklarning turkiy manbalar orasida eng ishonchli deb tan olingan "Temur Tuzuklari", N.Shomiyning "Zafarnoma", Inb Arabshohning "Temur haqida taqdir ajoyibotlari", G'iyosiddin Alining "Hindistonga yurish kundaligi" kabi tarixiy asarlardan farqli jihatlari ham ahamiyatlidir. Bu asarlarning Yevropa tillariga jumladan Sh. Yazdiy "Zafarnoma"si 1722 yilda Petey de La Krua tomonidan, Ibn Arabshoh asari 1658 yilda P.Vote tomonidan fransuz tiliga K.Marlou o'limidan yarim asr o'tgandan keyingina tarjima qilingan. Shu

bois, K.Marlou asaridagi vahshiy va dahriy Temur va tarixiy shaxs sifatida o'tmish manbalarida o'z adolati va turkiy ellarni o'z yurtida bek qilish orzusi bilan yashagan sarkarda o'rtasida o'xshashlik bo'lmasligi tabiiy. Shuningdek, nafaqat Temur shaxsi balki uning yurishlari haqidagi ma'lumotlarda ham muallif to'qima motivlardan foydalanganini ko'rishimiz mumkin

Marching from Cairo northward, with his camp

To Alexandria...(P II, Act I, stage I.)

Tarjimasi: o'z lashkarlarin to'plaladi-yu, U

Qohiradan Aleksandriya tomon yo'l oldi (Z,Y).

Dramada Misr o'lkasi Temur tomonidan bosib olinganligi haqida so'z ketadi...Ammo bu tarixiy voqeilikka to'g'ri kelmaydi.

K.Marlou o'z dramasini yozishda foydalangan asarlar tarixiy hujjatlar emas balki, qahramonlik romanlari ekanligi hisobga olsak, u bosib olgan o'lkalar nomlarining noto'g'ri keltirilishiga shubhasiz. Chunki, bu asarlardagi sarguzashtlar tarixiy voqealar emas, "qahramonlik fantaziyalari" edi. Demak, ushbu asardagi Temur obrazi va voqealiklar tarixiy shaxs bo'lgan Amir Temur shaxsidan tubdan farq qiladi. Amir Temur hayoti va faoliyatini o'zida mujassam etgan asarlar yoza olish uchun Temur faoliyati mohiyatini, uning shaxs sifatidagi ruhiyatini tasvirlash uchun, o'sha davrining muhiti, tarixiy dalillar, ilm-fan, tarix manbalari tasdiqlab bergan ma'lumotlarni chuqur o'rganish tarixiy asarlar yozajak adib oldiga qoyiladigan talblaridan sanaladi [Yaxshiyeva 2022, 2510-2513].

Ma'lumki, tarixiy voqealarga asoslangan asarlarni yozishda tasvirlanayotgan davr uchun tipik bo'lgan real haqqoniy va hayotiy harakterlarni yaratish badiiy ijodning bosh qonuniyati ekan, akademik Matyoqub Qo'shjonov ta'kidlaganidek: "*Tarixiy janrda ish ko'radigan yozuvchi... badiiy to'qimadan tarixiy haqiqiat taqozo qiladigan darajada foydalansa ham, tarixiy dalillarga asosiy manba sifatida yondoshadi, shu asosda tarixiy shaxs xarakteri tasvirlanadi*" [Qo'shjonov 1965, 96]. Tadqiqotlatda tarixiy mavzudagi asarlarning xususiyati haqida gap ketganda, tarixiy voqea bilan roman o'rtasidagi muvozanatni saqlash, kitobxonni romandagi tarixiy voqealarga ishontirish, bu o'rinda adabiyotning yutug'i esa yozuvchining mahorati bilan kitobxon ishonchi uyg'unlashgan nuqtada kesishishi aytilgan [Rahmonov 2012]. Shu fikrlardan xulosa qilish mumkinki, K.Marlou ingliz adabiyotiga Temur shaxsini o'z asari bilan tanishtirar ekan, badiiy to'qimaga tayanib ish ko'rgan, tarixiy haqiqatdan taqozo qilingan darajada foydalanmagan, tarixiy dalillarga asosiy manba sifatida qaramasdan, sarguzasht kechinmalariga urg'u bergan. Yoki,

ushbu tarixiy ma'lumotlar K.Marlougacha yetib bormagani uchun uydirma va og'zaki ma'lumotlar bilan chegaralangan ko'rinadi. Asarga garchi Temur obraziga Amir Temur shaxsidan prototip sifatida foydalanilgan bo'lsada, aslida K.Marlougacha o'z zamonasiga bo'lgan munosabatini va g'oyalarini, siyosiy va diniy qarashlarini ifodalash uchun, zamonasining dolzarb muammolarini yoritib berish uchun nomlar, maskanlar, joylar kerak edi. Ushbu katta maqsadni yuklashga arziqli shaxs kerak edi. Bu tafovutlarda Sharqdan G'arbga sari og'izdan og'izga ko'chib, yo'l yo'lakay ma'lum o'zgarishlarga uchragan afsonalarning ham roli katta.

Kristafor Marlou asarini sinchiklab kuzatgan o'quvchi muallif Angliyaga namuna qilib ko'rsatishni istagan haqiqiy qiro, jahongir va qahramon Temur obrazi ekanligiga ishonch hosil qiladi. Bu tarixiy shaxsning ko'plab qirralari Marlouni rom qilgan bo'lsa ajabmas. O'rta asr Angliya qirollari unutib qoygan mardlik, jasurlik va tantilik kabi xislatlarni u balki Amir Temur shaxsida ko'rgandir.

*Tamburlaine: we will not steal upon him cowardly,
But give him warning and more warriors. (Pl, Act I, Sc.5)*

*Ma'nos: Biz hech nomardarcha talamasmiz, aslo
Ogohlantiring bo'lajak janglardan uni (Z.Y).*

G'arb adibining sahna asarida Temur dinning kushandasi sifatida ko'rsatilar ekan, undan farqli o'laroq Sharqda Sohibqiron islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan hukmdor sifatida tasvirlanadi. Bu haqda "*Temur tuzuklari*"da jahongirning o'zi shunday deydi: "*Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim*" [Temur Tuzuklari 1991, 24].

Sharqshunos adiblar manbalariga emas, Amir Temur haqidagi og'zaki manbalarga, turli mavzu va janrarga asoslangan Marlou asarining asosiy g'oyasi hukmdorlik insonga Xudo tomonidan berilgan in'om emas, balki har qanday inson, hatto, cho'pon ham, o'z kuch qudrati, aqli bilan yuksak mavqega erishi mumkin degan g'oyani ilg'ash mumkin. K.Marlou asari singari S. Toshkandiyning jangnomasida ham sentimentalizmga moyillik kuchi seziladi, chunki, kitobxon va tomoshabin diqqatini tortish uchun sentimental tasvir tanlangan. Har ikki ijodkor Temur obrazini yaratishda xuddi ertak va epos qahramonlari singari, uning jismoniy jihatlariga, harakteridagi qat'iyatiga asosiy diqqatni qaratishgan. Tarixiy voqeilik va tarixiy dalillar o'rtasidagi mutanosiblik hamda ushbu asarlardagi Amir Temur haqidagi og'zaki ma'lumotlarning asosiy o'rin egalashi badiiy asar yaratish qonuniyatlarini inkor qilmaydi, balki

ijodkorlarning maqsad va niyatlarini to'laqonli yuzaga chiqishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida asarlari va tadqiqotlari tahlil ostiga olingan olim va adiblarning asar va manbalarida Temur obrazini mukammal shaxs sifatida tasvirlanishiga sabab, o'z davri-ning uquvsiz humkdorlariga namuna qilib ko'rsatish edi.

Shu o'rinda keltirib o'tish joizki, Shaqr adabiyot dunyosida, jumladan o'zbek adabiy muhitida mustaqillik sharofati bilan Amir Temur shaxsini adabiyot va tarixiy asarlarda keng tadqiq etilish o'zbek xalqi va millati ma'suliyatiga aylandi. Sohibqironning nomi, siymosi xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iymon-oqibatli bo'lishda, milliy-tarixiy va madaniy-ma'rifiy ildizlarimizni chuqur anglashda, buyuk kelajagimizni qurishda bizga yangidan-yangi kuch-quvvat bag'ishlamoqda [Saidov 2017, 83]. Darhaqiqat, Amir Temur yodi va uni o'rganish u tug'ilib o'sgan vatandoshlari uchun zaruratdir. Buyuk bir timsol sifatida, markazlashgan davlat tuza olgan mohir sarkarda sifatida, xalqni farovonlikka boshlab bora olgan dono yo'l boshchi, yurti tinchlikda saqlay olgan diplomat sifatida kerak. Yoshlarimizga ibrat bo'la oladigan tarixiy Shaxs sifatida u davrimizning, kelajagimizning ehtiyojidir.

Amir Temur va uning sulolasi haqida bepoyon sahifalarda qalam tebratish zavqli, shavqli, sharaflil bo'lish bilan birga, o'ta ma'suliyatli hamdir. Bunday zalvorli ishni uddalash ulkan bilim zaxirasini, badiiy ijod iste'dodidan tashqari, ilmiy iqtidorni va izlanishni ham talab etgan. Mana shunday zalvorli ishni uddalay olgan yozuvchilar orasida Muhammad Alining xizmatlari ulkan. Uning qalamiga mansub "Ulug' saltanat" tetralogiyasi katta bir epopik asar sifatida mashhur. Asarning boshidan oxiriga qadar Amir Temur mehribon va qattiqqo'l ota, sadoqatli va g'amxo'r turmush o'rtoq, oliyanob do'st, kechirimli va saxovatpesha inson, mard va qo'rqmas sarkarda, xalqparvar va bunyodkor rahbar, adolatparvar va elparvar podshoh sifatida namoyon bo'ladi.

Amir Temur Yaratgan qo'llagan bir zot, uning ulkan saltanat tuzishi va uni adolatli boshqarishi azaliy qismati ekanligi, Muhammad Alining "Ulug' satanat" tetralogiyasida piri murshid Mir Sayyid Baraka tomonidan jangga hozirlik ko'rayotgan bek va navkarlar oldida oshkor qilinadi. Bunday ulug'vor g'oya har bir romanda uzluksiz rivojlantirilib boriladi. Asarda Amir Temur Mir Sayyid Barakani tanimasdan turib tashrif buyurishi hatto sohibqironning ham hayratga soladi. U Amir Temurning hali oddiy sarkardalik paytida uning sohibqironligi, ko'ragon ekanligini bashoratlar qiladi: "Sirli odam besh qadamcha narida to'xtadi: - Bismillohir rohmanir

rohiym, Temurbek janoblari! - dedi yangroq ovoz ila u. – Inshoolloh, Olloh himoyasi sizga posbondur. Ushbu havorang bayroqni sizga berurmen, toki davlatingiz, bo'y-bastingiz olamga ayon bo'lsun! Ushbu tabl-nog'orani hadya eturmen, toki dovrug'ingizni dunyolarga taratsin! Ular saltanat va podsholik alomatlaridur. Bilingizkim, hazrati jalol subhonahu taolo bu zaif bandani siz Sohibqironga pir etib yubormish! Kamina Makkai mukarrama shariflaridan Mir Sayyid Baraka tururmen! Alhamdulillah rabbil olamin!" Mir Sayyid Barakaning bashoratiga ko'ra Amir Temur jahonga maxsus bir ilohiy vazifa bilan yuborilgan: "Olam tangrisining xohishi shulki, davlat nog'orasini chalib, jahon maydoniga ot solursiz, ey Sohibqiron! Jahon u boshidan bu boshigacha o'zlariniki bo'lgay! Davlatga erishurlar, aslida, davlat sizga yetishgay! Siz davlat birlan buyuklik martabasiga erishmaydursiz, balki davlat sizning tashrifingizdan ulug'lik topgusidur".

Yuqorida keltirilgan epopik asardan farqli o'laroq K.Marlou asarining bosh qahramoni va asardagi sarguzashtlar esa tarixiy shaxs Amir Temur shaxsi va hayot faoliyatining teskarisi tarzida tasvirlangan bo'lsa, Charlz Sandersning dramasi Amir Temur hayotidagi voqealarga anchayin mos keladi. Bunday xulosa qilish muminki, adib Amir Temur hayoti haqida yetarlicha o'rgangan va uni asariga prototip qilib olishda K.Marlou qilgan xatolikdan qochgan bo'lishi mumkin. Tarix solnomalaridan ma'lumki, Amir Temur o'z hayoti davomida qadrlagan eng muhim fazilatlardan biri ishonch va do'stlikdir. XVII asr adabiyotida Temur obrazi mana shunday fazilatlarga ega tarixiy shaxs sifatida Charlz Sanders asarlarida ko'rina boshladi. Ammo shunga qaramay asar qahramoni o'rni kelganda o'z daxshatini, o'z o'rnida esa himmatini namoyish etadi. O'zbek adabiyotshunosligining bilimdonlaridan biri A.Hayitmetov ta'biri bilan aytganda "*Amir Temurda qahr ham bo'lgan, mehr ham*" [Hayitmetov 1999, 15]. Tarixiy dalillarga ko'ra Amir Temur Boyazid bilan bo'lajak jangni oldini olish uchun unga to'rt marotaba maktub jo'natadi. Yildirim Boyazid esa uning maktublariga nisbatan haqorat, masxaralash bilan javob qaytaradi. Sohibqironning navbatdagi maktublarida ham unga sulh taklif qilishi, musulmon dunyosining rahnamosi sifatida o'git ohanglari ustuvor edi. Boyazidning xatti harakatlariga zid ravishda Amir Temur unga do'stlikni taklif qiladi. Charlz Sanders asarining bosh qahramoni ham ishonch bilan ish ko'rishni istovchi obraz.

Tamerlane: Faith is the brightest Jewel of a Crown!

Ma'nosi: Ishonchdir tojning nur sochiib turguvchi lojuvard

javohiri! (Z.Y).

Bu asarni adabiyotshunos olim Olimjon Dadaboyev “Tarixiy drama deyish noto’g’ri bo’lardi” deya munosabat bildiradi. Chunki, dramadagi voqealar aslida ikki yosh o’rtasidagi sevgi qissasiga, bir biriga dushman ikki hukmdorning farzandlari bir-biriga ko’ngil berishgan, ammo g’anim padarlar sabab taqdir ularga katta sinovlar yuborgan. Asarning mana shu zaylda kechishi Sharq adabiyotida Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” dostoni syujeti bilan o’xshash. Garchi Sayfi Saroyi o’z bosh qahramonlarini Temur va Boyazid emas, Temur va To’xtamish deya o’zgartirgan bo’lsada, aslida asar voqealari tarixiy voqeaga asoslanganini ta’kidlaydi.

Emas afsona, chin ushbu bitilmish

Bu chin, afsonadek ishqda yetilmish!

Charlz Sandersning bosh qahramonlari Temurning o’g’li va Boyazidning qizi tarzida berilgan bo’lsa, Sayfi Saroyida Guldursin Temurning qizi Xivaga qilingan yurish oqibatida asir tushgan Suhaylni sevib qoladi. Ammo ikki asarda ham sevrishganlar taqdiri fojeali yakun topadi.

Qayd etish lozimki, Charlz Sanders o’z asarida tarixiy shaxslar va voqealar tasviriga tabiiylik, reallik baxsh etganki, asar tomoshabinlar tomonidan o’zgacha hayrat va olqishlar bilan kutib olingan. Chunki, Yevropa qo’shni kuchu qudrati tengsiz hisoblangan Turk sultonining Temur tomonidan mavh etilishi, buyuk Anqara jangi tafsilotlari, ikki buyuk hukmdor munosabatlari haqidagi Turk va Greklarning og’zaki o’qima afsonalari va taassurotlari ular uchun muhim mavzu edi. Bunday hayratlanarli to’qimalardan ijodkorlar unumli foydalanishgan. Ingliz adibining Amir Temur haqidagi tarixiy ma’lumotlardan xabardor ekanligi yana shu bilan oydinalshadiki, muallif o’z asarida bir qator sharqona ismlarni ingliz talaffuziga moslangan variantlarini keltiradi. Abdalla - Abdulla, Odmar - Umar, Tamerlan-Temur kabi. Amir Temurning G’arb adiblari asarlariga kiritilish masalasini organgan olim O.Dadaboyev Charlz Sanders Amir Temurni O’lmas Kasheshega o’xshatganini yozadi. Shuningdek u Yevropa kelajagiga rahna solib turgan g’anim Boyazidning bo’lajak istilyosidan Yevropani saqlab qolgan xaloskor Temur obrazi ham Inglizlar qalbida unga nisbatan iliq munosabatlarni oyg’otgan bolishi mumkinligini ham ta’kidlaydi. Sayfi Saroyi va Charlz Sanders asarlaridagi xalqona motivlar va afsonaviy istifoda etish qonuniyatlari g’arb va sharq xalqlari tomoshabini va kitobxoni tomonidan iliq kutib olingan badiiy asar ta’sirida deb xulosa berish mumkin. Chunki, “agar tarix jamiyatda yuz bergan voqealar zanjirini

dalillar orqali yoritisa, xalq tomonidan bu voqealarning qabul qilinish folklorda va voqealarning badiiy tasvirida yaratiladi” [Закирова, 2011, 65].

Mavjud tarixiy muhit, o'sha muhitdagi voqealarning real rivoji XVII asrda Amir Temur borasidagi Yevropa xalqlari qarashlarining bir muncha ijobiy bo'lishini ta'minlagan. Shu muhit ta'sirida yaratilgan Charlz Sandersning asari qahramoni Temur K.Marlou asaridan tubdan farq qilgan holda ijobiy harakterga ega obraz sifatida talqin qilinadi. Bu ikki ijodkorlarning asarlar qahramoni garchi bir shaxsning prototipi bo'lsada, XVI asrda Temur tahlika soluvchi va qo'rqinch bilan tilga olinsa, XVI asrda bu nom Yevropa dunyosiga tinchlik va ozodlik in'om etuvchi, adolatparvar qirol sifatida ko'rina boshlaydi.

Endi XVI asrning Temur haqidagi qo'rquvlaridan holi, XVII asrning “Xudoning jazosi” ta'riflaridan olis, ijobiy harakter kasb etgan obraz: Tamerlan misolida yana bir ingliz adibi Nikolas Rou taqvodor, xudojoy hukmdorni, o'z mamlakati farovonligi uchun kurashgan, tinchliksevar yurt egasini ko'radi. Bunday hislatlarga ega asar bosh qahramonini yaratishga N.Rou Amir Temurning “Temur tuzuklarida” keltirilgan *“Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim”* [Temur Tuzuklari 1991, 24] degan purma'no hikmatomuz so'zlarini o'qigan ko'rinadi. Shuningdek, ushbu asar boyicha o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borgan adabiyotshunos Olimjon Dadaboyev ta'kidlashicha: “Pyesaning mavzusi, syujeti, Temurning ojiz va mazlum xalqlarning oliyhimmat, mard himoyachisi obrazida namoyon bo'lishi, oliy nasabli personajlar va ekzotik buyoqdorlik kabi omillar tomoshabinni o'ziga rom etadi” [Dadaboyev 2019, 69].

Asarni mutoala qilish jarayonida ko'rish mumkinki, Tamerlan xatto, dushmanlari va ularning yaqinlariga ham yaxshilik ko'zi bilan qaraydigan oliyhimmat obraz. Bu esa Amur Temurning tarixiy shaxs sifatidagi haqiqatini dalillaydi. G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom “Amir Temurning Hindistonga yurishlari haqidagi xotiralari”; Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Kastiliya va Leon elchisi Rui Gonzales de Klavixo “Samarqandga sayohat kundaligi” xotiralari; Sultoniyalik arxiyepiskop, Fransiyaga Temur elchisi sifatida yuborilgan Iaon “Temur hayoti va saroyi” xotiralari-ni, Tunislik tarixchi, geograf Ibn Xaldun xotiralarida keltirilgan Amir Sohibqironga berilgan ta'riflarga hamohang.

Nikolas Rouning “Tamurlan” asarida keltirilgan asir olingan

turk qiziga uning munosabati bosh qahramonga yuklatilgan xarakterni oydinlashtiradi. U harbiy shon shuhratga burkangan, janglarda o'z mardligi-yu jasurligi bilan nom qozongan bo'lishiga qaramasdan, nizolarni tinchlik yo'li bilan hal qilish tarafdori.

*Tamerlane: I dare face death, and all the danGers
Which furious war wears in its bloody front?
Yet would I chose to mix my name by peace
By justice, and by mercy and to raise
My trophies on the blessing of mankind [Rowe 1750, 5].*

Ma'nosi: O'limning dahshati ufurgan barcha manfur, qonli janglarga tik boqib tura olsamda, ammo o'z sha'nim va nomimni muruvvat va adolat tayanchi, insoniyatga Xudoning bir marhamatlisi sifatida bo'lishni tanlardim (Z.Y).

U urush va janglarda qirg'inbaron manfur kuchni ko'ra oladi, insoniyatning hadik va a'zoblarini fahmlaydi. Mohir siyosatchi sifatida esa "dahshati ufurgan", qonli janglarning oddiy odamlarning hayotidagi vayronkorliklarini yaxshi anglaydi. Ammo, u o'z shuhratini tinchlik va adolat, mehru-shavqat va siylayi rahm g'alabalari bilan insoniyatga baxt ulashuvchi bo'lishni, qo'l ostidagi xarobalar to'la saltanati unga kerakmasligini tan oladi. Asar qahramoni Temur shunday obraz bo'lsa, Boyazid uning aksi, urushlardan bahra oluvchi hukmdor. Temurning janglardagi g'alaba maqsadlari esa tamomila o'zgacha:

*To redress an injured people' wrongs
To save the weak one from the strong oppressor. (Act I. Scene I.)
[Nicholas Rowe 1750, 7].*

Ma'nosi: aziyat chekkan isonlarga ko'mak qo'lini cho'zish-u, ojislarni qudratli zulm ahlidan xalos etishdir!

Ingliz adabiyotida Amir Temur tarixiy shaxsini prototip qilib olgan adiblar Kristafor Marlou va Charlz Sanderslarning asar yozish maqsadlarida bo'lgan o'sha ulkan niyat "o'z davri qirollariga xos dimog'dorlik, manmanliklari" ham Nikolas Rou asari bosh qahramoni tilidan tanqid ostiga olinadi:

*Tamerlane: Thou vain, rush thing,
That, with gigantic, insolence, hast dared
To lift the wretched self above the stars
And mate with power almighty, Thou art fall in!*

Ma'nosi: Sen haddini bilmagan, ulkan surbetlikka mukkasidan ketganlar,

*O'zini yulduzlardanda baland ko'rgan, kibr ahli,
Alloh qudratiga teng bo'lmoqni istab, qulayverasiz! (Z.Y).*

Shuningdek, yozuvchi o'z davri qirol va qirolchalarida ko'rishni orzulagan kechirimlilik, olijanoblik va tantilik hislatlarini o'z qahramonida ko'rar ekan, u dramasi qahramoni afsonaviy to'qima obraz emas, Osiyoda yashab o'tgan sarkarda Amir Temur ekanligiga zamondoshlarini ishontiradi.

Nikolas Rouning "Tamerlan" asari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olim O.E.Zagriyevaning ilmiy xulosalariga ko'ra: "asar bosh qahramoni Tamerlanning taqvodorligi va din erkinligini e'tirof qilish kabi olijanob hislati bilan uyg'unlashib ketadi. Asar qahramonining bunday dunyoqarashi diniy fanatizmga qarshi keskin norozilik kayfiyatida bo'lgan muallif etiqodi bilan bir xildir" [Загриева 2017, 15]. Demak, muallif dinlararo bag'rikenglik g'oyalari ilgari surgan. Chunki asar bosh qahramoni dunyoni insonparvarlik g'oyalari asosida qayta qurishni o'z hayotining bosh maqsadi deb biladi. U faqat xalq manfaati yo'lida xizmat qilish orqaligina mangu shon shuhrat qozonish mumkin deb hisoblaydi. Zero, xalq qudratiga tayangan hukmdor davlatning ichki va tashqi siyosatida ham, xalqlar mehri-ni qozonish yo'li bilan o'z maqsadiga erishi mumkinligiga ishonadi. Bu g'oyalar esa avlodlarga o'git bo'lib jaranglaydi. "Tuzuklar"ning bosh g'oyasi bo'lgan bu qarashlar Nikolas Rouni ilhomlangani tabiiy. Bundan xulosa qilish mimkinki, adib ma'rifatparvarlik davri vakillarining optimistik qarashlari tarafdori bo'lgan. Temurning Boyazid ustidan g'alabasi faqatgina tarixiy dalil emas, balki bu dunyoga yaqinlashib kelayotgan ma'naviy va ma'rifiy uyg'onishning yaqqol timsoli edi.

Yana bir jihat, Nikolas Rouni ko'proq tarixiy asar yozish emas, sharqlik ikki hukmdorning fe'l atvori, ular o'rtasidagi tarixiy urush natijasi qiziqtirgan. Chunki, Boyazid ustidan qozonilgan g'alaba Evropani muqarrar qullikdan qutqarib qolgani N.Rouga yaxshi tanish ma'lumot bo'lgan. Shu bois, u bir evropalik sifatida Temur timsolida vatanparvar, dinning himoyachisini ko'ra olgan. Sohibqironning kechirimlili-gi, o'z qo'li ostidagilariga bo'lgan munosabatidan yaxshigina xabardor bo'lgan muallif ko'nglida unga o'xshash, Angliya uchun ko'plab arzirli yuksalishlar qila olgan Uilyam III obrazini yaratish tug'iladi va muallif asarni unga bag'ishlaydi. Xususan, muallifning o'zi asar muqaddimasida shunday yozadi: "Shunisi haqiqatki, bu buyuk Inson (Amir Temur) hayotida Oliy Hazratlari kabi (Uilyam III) ko'plab sifatlar mavjud: jasurligi, hudojoyligi, o'zini tuta bilishi, odil-ligi, o'z xalqini otalarcha sevisi, razolat va jaholatga qarshiligi, od-

diy xalqqa g'amxo'rligi unga o'xshab ketadi" [Rowe 1750, 2].

O'z davrining va keyingi asrlarning eng mashhur bu asarini ilmiy tadqiq etgan tadqiqotlar ham talaygina. Yevropaning mashhur adabiyotshunoslaridan Villar Trop hamda Donald Klark o'z ishlarida dramaning siyosiy interpretatsiyasini muallifning o'z his tuyg'ularidan kelib chiqqan holda, asarni ijodiy ochib berish talqini va ahamiyatini ko'rsatib berishgan. Bu ikki adabiyotshunos N.Rou Tamerlane obrazi orqali Angliya qiroli Uilyam III'ni, Boyazid obrazi orqali Fransiya qiroli Luis IV ni tasvirlagan degan xulosaga kelishsa, boshqa manbalarda Boyazid obrazi timsolida muallif Angliyaning boshqa bir qiroli Jeyms II tasviri qayd etilgan [Samia al Shayban 2009], deb ta'kidlanadi. Ammo, tarixiy ma'lumotlarda ko'rsatishicha, Jeyms II va Fransiya qiroli Luis IV ittifoqdosh va maslakdosh edi, demak, yuqorida berilgan ikki xulosa ham bir-birini to'ldiradi. Chunki, XVII asrning ikkinchi yarmida Angliyada katolik va protestant mazhablari o'rtasidagi ziddiyatlar tugamagan, inglizlar katolik qiroli Jeyms II ning davlat boshqaruvidan norozi kayfiyatda edilar. U o'zining dastlabki qirolik yillaridanoq Fransiya bilan ittifoqlikda katolizmni yuksaltirishga kirishib ketadi. Bu esa nafaqat oddiy el vakillari, balki yuqori qatlam kishilari orasida ham norozilik kayfiyatini tug'dira boshlaydi. Shu bois, ular birlashib, davlat to'ntarishi amalaga oshiradilar. Oqibatida uning kuyovi Uilyam III ni taxtga olib kelishadi. Qaynota esa ittifoqdoshining huzuriga -Fransiyaga qochib, umrining so'ngigacha o'sha yerda qoladi.

Turli daraja, turli saviyadagi ilmiy izlanishlarda jahongirning shaxsi, tadbirkorligi, bunyodkorligi, ilm-fan, san'atga homiyliigi, harbiy mahorati, davlat boshqaruvidagi o'ziga xos siyosati tadqiq etilgan bo'lib, Amir Temurning murakkab hayoti va ziddiyatlarga to'la faoliyatiga berilgan baho ham har xil. Buning sabablaridan biri o'sha tadqiqotlar yaratilgan davrda tadqiqotchining qo'lida mavjud manbalar bilan ham bog'liq. Shundan kelib chiqsak, Amir Temur haqida xolis va ishonchli manbalarga asoslanib yozilgan ishlarni saralab, jahon tillariga tarjima qilish va internet tarmoqlariga joylashtirish zarurat ekanligi ayonlashadi.

Renessans g'oyalari purma'no obrazlarida talqin qilingan, o'z dramalrida insonning yaratuvchilik qudratini tarannum etgan Ingliz shoiri Kristafor Marlou ham "powerful tragedy" (qudratli fojea) janri uchun "Tamburlaine the great" (Buyuk Temur) dramasi bilan Amir Temur tarixiy shaxsini prototip sifatida tanladi. Garchi drama bosh qahramoni salbiy obraz sifatida talqin qilinsada, buning sababini oydinlashtirish asnosida bir necha jihatlarni o'rganib chiqildi.

1. Barcha ijodkorlar singari K.Marlou ham o'zi yashagan davrning, makon va zamonning muammolarini o'z asarining bosh qahramoni orqali yoritib berishni maqsad qilgan. Shu bois, K.Marlou va unga zamondosh yozuvchilar ham ingliz olimi Kelli Maykl ta'biri bilan aytganda *"asarlar tarixiy jihatdan juda ham muhim, chunki bu asarlar ommaviy sahnalar orqali o'z zamonasining ayanchli siyosiy va ijtimoiy voqealarini ifodalagan edi"* [Kelly, Michael J. 2008].

2. N.Rou siyosiy qarama qarshiliklar avjiga chiqan bir davrda yashab ijod qildi. Uning bolalik davrlarida Angliya iqtisodiy va siyosiy tanazzulga uchragan davrlarga to'g'ri keldi. Bu esa bo'lajak yozuvchi dunyoqarashi shakllanishida va ijodda o'z yo'lini topishda katta ta'sir etdi. Shu bois, u o'z asarlarida ilgari surgan eng katta va dolzarb mavzu monarxiya va monarxlar masalasi bo'lib, yozuvchi asarlariga bosh qahramon qilib olgan qudratli shaxslarga ularning xarakterini singdirishga harakat qildi. Bu orqali u bilvosita o'zi yashayotgan davrning eskirgan aqida va g'oyalariga qarshi chiqdi. Bu vaqt Angliyada ierarxiya dunyosi inqirozga yuz tutayotgan, qirollar ilohiy majburiyatlardan boyin tovlayotgan holda o'z qirollik imtiyoz va imkoniyatlarini saqlab qolishga intilishga kirishgan davrlar edi. Bu orqali jamiyatning mutloq monarxiyaga ishonchi yo'qolib, ommaviy e'tirozlar bildirilishi boshlangan pallalar edi. Ilgarilari, qirollarni ilohiylikka daxldor deb hisoblagan va ularning ayb-nuqsonlari haqida so'z ochishga haqiqiy xalq ularning turmush tarzi va xatto yurish turishlari haqida muhokamalar qila boshlashdi. Mana shunday sharoitda ijodkorga qirollar va monarxiya haqida ochiqroq fikr ayta olish uchun ularga mos mavqeidagi shaxs kerak edi.

Xulosa

Amir Temurning dunyoni zabt etgan va o'z janglarida mag'lubiyatga uchramagan jahongir ekanligi haqidagi afsona-yu rivoyatlar, uning tarixiy shaxs sifatida va badiiy qahramon tarzida Sharq va G'arbliklarning g'ayritabiiy voqeiliklarni turli talqinlarda o'z ijodlariga singdirib yuborish sabablari haqida ilmiy xulosalar berishga harakat qilindi. Demak, Kristafor Marlou va Salohiddin Toshkandiyning asarlarini, Charlez Anderz va Nikolas Rou badiiy merosini turkiy ijodkorlar ijod mahsullari bilan qiyosiy o'rgangan holda xulosaga keldikki, ushbu asarlarda Amir Temurni tipiklashtirish deb talqin qilish to'g'ri bo'lar edi. Tarixiy shaxsning asarga ko'chgan obrazi va tarixiy voqealarning o'rtasidagi mutanosiblikkina uni tarixiy asar yoki to'qima badiiy asar ekanligini

namoyon qilib beradigan omillardan biridir. Chunki, Nikolas Rou “Tamurlan” asarini yozishda qanday manbalarga tayangani haqida aniq ma’lumotlar berilmasa-da, ammo tasvirlangan g’oyalar va voqealardan xulosa qilish mumkinki, uni yozishda muallif Kristafor Marlou hamda Charlz Sanders dramalariga emas, Richard Nollning “Turklarning umumiy tarixi” kitobiga asoslangan deb tahmin qiladi D.Klark. Asar qahramonlarining nomi yuqorida nomi keltirilgan ikki vatandosh yozuvchilarining nomlanishidan mutloq farqlanib, ism tanlashda C.Klarkning 1664-yilda yozilgan “Buyuk Temurlangning hayoti” asaridagi shaxslar ismlarida o’xshashliklar mavjud. Temurshunos olim O.Dadaboyevning adabiyot nazariyasi bilimdoni N.D.Tmarchenko fikrlariga asoslangan ilmiy xulosalarida keltirishicha: “aynan shu drama XVIII asrdagi Yevropa dramaturgiyasining noklassik yoki yangi davrga aloqadorligini va klassik davrga zid qo’yilishiga sabab bo’lgan va noklassik davrga o’tish boshlangan. Shundan xulosa qilish mumkinki, K.Marlou hamda Ch.Sanders asarlarini klassik tarixiy dramalar sifatida, N.Rouning asarini esa estetik poetika xususiyatlarini an’anaviy ravishda saqlab qolgan ijod mahsuli sifatida qarash o’rinli. Yana bir rus olimi Y.B.Vipperning nuqtayi nazaricha, XVII asr ingliz adabiyoti uyg’onish davri adabiyoti sifatida o’rta asrdagi shaxsiyatini, gunanistik qadriyatlarining asosiy o’lchovi sifatida uning huquq va imkoniyatlarini chegaralashdan mustaqil, erkin adabiyotga o’tish haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqqan. Ammo bu davr adabiyoti shaxsiyatlarni voqeilikning chuqur va keng qamrab olishi nuqtayi nazaridan, voqeilikdan tashqaridagi o’zicha tushunish nuqtasi, shu bilan birgalikda voqeilikka ta’sir etuvchi kuch deb qaraydi”.

Demak, XVIII asr ingliz adabiyoti vakillarining insoniyat haqidagi tushunchalari cheksiz va sinalmagan imkoniyat va kuch qudrati ila tengsiz alohida shaxs bilan bog’liq edi. Shu ma’noda, Amir Temurni obrazini uyg’onish davri adabiyotiga xos obraz sifatida yatarishga turtki bo’ldi. Nikolas Rouning Osiyoda yashab o’tgan buyuk sarkarda Amir Temur prototipiga asoslangan Tamerlan obrazi mana shunday hislatlarga ega qahramon sifatida Ingliz adabiyotida asrlar davomida mashhurlikka erishdi.

Adabiyotlar

- Dadaboyev, O. 2019. *G’arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini*. Filol.fan.fal.dok.diss. 140 b.
- Salohiddin Toshkandiy. 1990. *Temurnoma*. Nashrga tay. va so’zboshi va lug’at muallifi P. Ravshanov. Toshkent. – 351 b.
- Парфёнев, А. Т. 1965. Трагедия Кристофор Марло: Автореф. Дисс.канд.

- филл.наук. Москва. 5 с.
- Мароцци, Жастин. 2010. Тамерлан. Завоеватель мира. Москва. Полиграфиздат. – 66с
- Ellis Fermor U.M. 1927. *Christopher Marlowe*. London. – 13p.
- Yaxshiyeva, Z. 2022. *Historical reality and its artistic interpretation*. Neuroquantiology/november Volume 20 | issue 15 | – 2510-2513 p.
- Qo'shjonov, M. 1965. *Oybek mahorati*. Toshkent. – 96 b.
- Rahmonov, N. 2012. *Tarixiy davr manzarasi*. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". №1.
- Temur Tuzuklari*. 1991. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi. Toshkent. – 24 b.
- Saidov, A. 2017. *Ulug' saltanat va uluvor ajdodlarimiz tarannum etilgan asar*. "Ulug' saltanat vasfi" nomli to'plam. Toshkent: Mashhur Press. – 83 b.
- Hayitmetov, A. 1999. *Temuriylar davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Fan nashriyoti. – 15 b.
- Закирова, Г. 2011. Народное творчество периода Золотой Орды: мифологическое и историческое основы. Казан. АДД.
- Nicholas Rowe. *Tamerlane*. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. Dublin. 1750. – 5 p.
- Загриева, О.Е. Творчество Николаса Роу и становление жанра синтиментальной драмы в Англии конца XVII и начало XVIII века. 2007. Автореф. дисс. кан. филл. наук. - Киров. – 15 с.
- Clark, Donald B. 1950. *The source and characterization of Nikolas Rowe's Tamerlane*// Modern language Notes. №5.
- Samia al Shayban. 2009. *In search of James II. Bajaset's figurative presence in Nikolas Rowe's Tamerlane*. Diraset, Human and social science, №36. 1.
- Kelly, Michael J. 2008. *Christopher Marlowe and Golden age of England*. The Marlowe society research journal. №5.
- Виппер, Ю.Б. 1991. Творческие судьбы и история. Москва: – 70 с.
<https://wikipediya.info.com>.
https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayfi_Saroyi.
- Жабборов, Н. (2021). Литература времени Мирзо Улугбека в интерпретациях Алишера Навои. in Library, 21(2), 76-92.
- Jabborov, N. (2021). Literature of Mirzo Ulughbek's Time in Alisher Navoi's Interpretations.
- САЙИТКУЛОВ, И. А. (2019). STYLISTIC AND ARTISTIC FEATURES OF THE WORK TEMUR-NAME. Иностранные языки в Узбекистане, (4), 165-173.
- Sayitkulov, I. A. (2019). USAGE OF TERM FOLKLORE BOOKS IN FOLKLORE STUDIES AND DEVELOPMENT OF TEMURNOMA ("LIFE OF TIMUR"). Theoretical & Applied Science, (8), 7-10.

Research of works based on the prototype of Amir Temur in western and Eastern literature

Zebo Yakhshieva¹

Abstract

In this article, discussed the study of dramatic, poetic and prose works created at different times in medieval English literature, which received Amir Timur's image as a prototype. Each work was studied in a comparative way with existing examples of artistic creation in Uzbek and other Eastern literature. Scientific conclusions were made about the dream hopes that the writers imposed on artistic images relying on the theoretical considerations presented in the studies carried out. The work of Amir Timur "Timur's laws" was taken into the quality of the main object of our analysis, and scientific analysis was carried out on the views of the people of World literary Science on the Timur artistic image, which studied the artistic heritage of Western writers. A comparative study was carried out with the image of the historical figure of Amir Temur, who moved to works of art relying on a number of studies and scientific views of Uzbek literary scholars. Especially in this article, scientific summaries were given on the social environment of that time, the desire of the common people and the conflicts of the ruling layer and church, which were reflected in the main character of the English scholars, which were studied in a comparative way, on mythological elements that moved to the images and events of the fabric of the work.

Keywords: *interpretation, hierarchy, tetralogia, Nicholas Rowe, Charles Sanders, epopia, Tamerlane, Christopher Marlowe, dramaturgy.*

References

- Dadaboyev, O. *G'arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini*. Filol.fan.fal.dok.diss. 2019. – 16 b.
- Salohiddin Toshkandiy. *Temurnoma*. Nashrga tay. va so'zboshi va lug'at muallifi P. Ravshanov.T.: 1990. – 351 b.
- Parfyonev, A. T. *Tragediya Kristafor Marlo: Avtoref. Diss.kand. fill.nauk.* M:1965. – 5 s.
- Marossi, Jastin. *Tamerlan. Zavoevatel mira*. Moskva, Poligrafizdat, 2010. – 66.s

¹ *Yakhshieva, Zebo* – Doctor of philosophy in philology (PhD), associate professor.

E-mail: zebona.sevinch@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0973-6147

For citation: Yakhshieva, Z. 2024. "Research of works based on the prototype of Amir Temur in western and Eastern literature". *Uzbekistan: Language and Culture*. 1 (2): 120-137.

Ellis Fermor U.M. 1927. *Christopher Marlowe*. London. – 13p.

Yaxshiyeva, Z. 2022. *Historical reality and its artistic interpretation*. Neuro-quantology | november Volume 20 | issue 15 | – 2510-2513 p.

Qo'shjonov, M. 1965. *Oybek mahorati*. Toshkent. – 96 b.

Rahmonov, N. 2012. *Tarixiy davr manzarasi*. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". №1.

Temur Tuzuklari. 1991. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi. Toshkent. – 24 b.

Saidov, A. 2017. *Ulug' saltanat va uluvor ajdodlarimiz tarannum etilgan asar*. "Ulug' saltanat vasfi" nomli to'plam. Toshkent: Mashhur Press. – 83 b.

Hayitmetov, A. 1999. *Temuriylar davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: "Fan" nashriyoti. – 15 b.

Zakirova, G. 2011. *Narodnoe tvorchestvo perioda Zolotoy Ordы: mifologicheskoe i istoricheskoe osnovы*. Kazan.ADD, – 265 s.

Nicholas Rowe. 1750. *Tamerlane*. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. Dublin. – 7 p.

Zagrieval, O.E. 2007. *Tvorchestvo Nikolasa Rou i stanovlenie janra sintimentalnoy dramы v Anglii konsа XVII i nachalo XVIII veka*. Avtoref. diss. kan. fill. nauk. – Kirov. – 15 s.

Clark, Donald B. *The source and characterization of Nikolas Rowe's Tamerlane*// Modern language Notes. 1950. № 5.

Samia al Shayban. 2009. *In search of James II. Bajaset's figurative presence in Nikolas Rowe's Tamerlane*. Diraset, Human and social science, №36. 1.

Kelly, Michael J. 2008. *Christopher Marlowe and Golden age of England*. The Marlowe society research journal. № 5.

Vipper, Yu.B. 1991. *Tvorcheskie sudby i istoriya*. Moskva. – 70 s.

https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayfi_Saroyi.

<https://wikipediya.info.com>.

Жабборов, Н. (2021). Литература времени Мирзо Улугбека в интерпретациях Алишера Навои. *in Library*, 21(2), 76-92.

Jabborov, N. (2021). Literature of Mirzo Ulughbek's Time in Alisher Navoi's Interpretations.

САЙИТҚҰЛОВ, И. А. (2019). STYLISTIC AND ARTISTIC FEATURES OF THE WORK TEMUR-NAME. Иностранные языки в Узбекистане, (4), 165-173.

Sayitkulov, I. A. (2019). USAGE OF TERM FOLKLORE BOOKS IN FOLKLORE STUDIES AND DEVELOPMENT OF TEMURNOMA ("LIFE OF TIMUR"). Theoretical & Applied Science, (8), 7-10.